



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20094904>

Chet tilni o'qitishda interfaol mashq va topshiriqlardan foydalanish

Atamirzayeva E'zoza Bekmirzayevna –

Namangan davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: bekmirzayevna@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-5341-7176>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada chet tilini o'qitishda interfaol mashq va topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Interfaol metodlar o'quvchilarning faolligini oshirish, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita sifatida yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** chet tilini o'qitish, interfaol mashqlar, topshiriqlar, kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, ta'lim samaradorligi.*

Использование интерактивных упражнений и заданий в обучении иностранному языку

***Аннотация.** В данной статье рассматривается значение использования интерактивных упражнений и заданий в обучении иностранным языкам. Подчеркивается роль интерактивных методов в повышении активности учащихся, развитии коммуникативной компетенции и формировании навыков самостоятельного мышления.*

***Ключевые слова:** обучение иностранному языку, интерактивные упражнения, задания, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, эффективность обучения.*

The use of interactive exercises and tasks in foreign language teaching

***Annotation.** This article examines the importance of using interactive exercises and tasks in foreign language teaching. It highlights the role of interactive methods in increasing learners' engagement, developing communicative competence, and fostering independent thinking skills.*

Keywords: *foreign language teaching, interactive exercises, tasks, communicative competence, interactive methods, learning effectiveness.*

KIRISH

Respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab-yashnashi bugungi kun yoshlariga bog'liq. Har tomonlama bilimli, kuchli va iqtidorli yoshlar unib o'sayotgan ekan, kelajakda ziyoli pedagog kadrlar soni tobora ortib boraveradi. Fransuz pedagogi Nina Grap ta'kidlaganidek, "...biz, fransuz tili o'qituvchilari, fransuz tilining asosiy elementlarini egallash samaradorligini oshirish uchun har doim yangi usullarni izlashdan manfaatdor ekanligimizga aminmiz. Buning uchun biz har doim yaxshi professional tayyorgarlikni namoyish etishimiz kerak".

Ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar o'zaro uzviy bog'lanadi. Lekin bunda yetakchi rolni, albatta, bilim egallaydi. Talabalar bilimlar asosida muayyan ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Tadqiqotchi olim S. Misirov ko'nikma va malakalarni umumiy va farq qiluvchi tomonlarini aniqlashtirgan. "Ko'nikma va malakalarning umumiy hamda farq qiluvchi tomonlari mavjud. Umumiyliги shundaki, ko'nikma va malakalar o'quvchilarning olgan bilimlari asosida bajariladigan faoliyat usullarini tashkil etadi, boshqacha aytganda, ushbu bilimlar amaliyotga o'tadi. Ko'nikma va malakalar ham, o'z navbatida, bilimlarni egallash jarayoniga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi". Demak, egallangan bilim mashq yordamida ko'nikmaga, so'ngra doimiy mashqlar vositasida malaka darajasiga ko'tarilar ekan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Fransuz tilini o'qitishning integrativ maqsadi talabalarning chet tilida nutq faoliyatining asosiy turlari: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv bo'yicha qulay darajadagi boshlang'ich kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Talabalarning nutqiy malakalarini o'stirish dars davomida olib boriladigan amaliy mashqlar orqali amalga oshiriladi.

R.K.Minyar-Beloruhev mashqqa ta'rif berar ekan, shunday yozadi:

"Mashq bo'linmaydigan birlik bo'lgani bois, uni o'qitishning elementar birligi deb hisoblash mumkin. Ayni mashq shunday bir metodik "g'isht" hisoblanadiki, undan mashqlar tizimi barpo bo'ladi, u o'qitish usulining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, busiz nutqiy ko'nikmalarning shakllanishi mumkin emas".

Tadqiqotchi M.Gulyamova esa mashqqa quyidagicha ta'rif beradi "tilni o'rganish, odatda, mashq qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mashqlarning asosiy mazmuni til o'rganuvchilarda nutq faoliyati turlari bo'yicha ko'nikmalarni hosil qilish, shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi".

Mashqlar nutq faoliyati turlarini egallovchi, osonlashtiruvchi va tezlashtiruvchi o'quv vositasi bo'lib, ularning tipologiyasi masalalari metodist olimlar ishlarida keng tadqiq etilgan. E.Passov o'z vaqtida har qanday mashqlar nutqiy muloqot, lingvistik, psixologik xususiyatlarga ega degan fikrni ilgari surgan. Uning fikricha, kommunikativ mashqlar, xaqiqiy kommunikativ mashqlar va shartli kommunikativ mashqlar turlariga bolinadi. Xaqiqiy kommunikativ mashqlar muloqot jarayonida paydo bo'ladi va shartli kommunikativ mashqlar mashg'ulotlar jarayonida shartli muloqot vaziyatini yuzaga keltirishi tadqiq etilgan.

V.Rahmonov esa mashqlar tizimini til va nutq mashqlari, reseptiv produktiv, aspektli va kompleks mashqlar, yakka, juft, tayyorlov, nazorat mashqlari kabi turlarga bo'ladi. J.Jalolov, T.Sattorovlar chet tillarni o'rganishda qo'llanadigan mashqlar sistemasini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, takomillashtiruvchi turlarga ajratgan. Ularning fikricha: "shakllantiruvchi mashq til materialini o'zlashtirishda, rivojlantiruvchi mashq nutqda til

materialining qo'llanishida va takomillashtiruvchi mashq esa chet fikr bayon etis va o'zga shaxs fikrini idrok etib tushunish maqsadida bajariladi”.

M.Gulyamova tadqiqot ishida quyidagi xulosalarni beradi “... mashq bu biror bir faoliyatni egallash uchun qaratilgan va o'quv jarayonini takomillashtirish hamda mustahkamlashga xizmat qiladigan ketma-ket yoki alohida bajariladigan amaliy harakatlardir. Mashqlar talabalar bilim darajalariga mos ravishda tanlanadi va dars materialiga asoslanib tasniflanadi, nutq faoliyati turlari bo'yicha taqsimlanadi va dars davomida mavzuni mustahkamlab o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Vazifa esa aniq maqsad uchun bajariladigan muammoli vaziyatni hal etishda kerak bo'ladigan topshiriqlar in'ikosidir”.

Bizning olib borgan tadqiqot ishimiz nutq faoliyatining muayyan turi tushunish, gapirish, o'qish va yozuv ko'nikmalaridan samarali foydalanishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotimiz jarayonida nutq faoliyati turlarini uyg'unlashtirib qo'llashga yo'naltirilgan integrativ mashq va topshiriqlarni loyihalashga harakat qildik. Tadqiqotimiz jarayonida nutq faoliyati turlarini uyg'unlashtirib qo'llashga yo'naltirildi. Bunda F.Perin, O.Avlayeva C.Jorayevalar. tomonidan yaratilgan kommunikativ mashqlardan foydalanildi.

1-jadval.

Nutq faoliyati bo'yicha takomillashtirilgan mashqlar

№	Nutqiy muloqot mazmudagi mashq nomi	Mavzu	Nutq faoliyati turlari	
			Berilgan nutq faoliyati turi	Taklif etilayotga nutq faoliyati
1	Entretien guidé	Le voyage à Paris	Production orale Compréhension oral.	Production écrite Compréhension écrite
2	Lecture de puzzle	La culture française	Production orale Compréhension écrite	Production écrite. Compréhension oral.
3	Les optimistes et pessimistes	Le sport	Production écrite Compréhension écrite	Production orale Compréhension oral
4	Individuelle, groupe et partage	L'environnement	Production orale Compréhension oral	Production écrite Compréhension écrite
5	De A à Z	L'université	Production orale Compréhension oral	Production écrite Compréhension écrite
6	Les rôles	Le marché	Production orale Compréhension oral	Production écrite Compréhension écrite

Yo'naltiruvchi intervyu mashqi (un entretien guidé)- bu talabalarning muloqot qilish va savol-javob ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan kommunikativ mashq turi hisoblanadi. Ushbu mashqda talabalar oldindan tayyorlangan savollar yoki yo'naltiruvchi ko'rsatmalar yordamida suhbat o'tkazadilar. Ushbu mashq nutq faoliyati turlari - gapirish, tinglab tushunish, yozish va o'qishni rivojlantirishga qaratilgan. U ikki bosqichdan iborat bo'lib, 1- bosqichda kichik guruhlar tashkil etiladi va guruhlariga turli xil mavzular beriladi. Mavzu bo'yicha javoblar yozilgan bo'ladi va talabalar birgalikda unga mos mantiqiy savollar tuzadilar. Har bir juftlikdan biri intervyu oluvchi, ikkinchisi esa javob beruvchi rolini bajaradi. Intervyu oluvchi oldindan tayyorlangan savollardan foydalanib suhbatni

boshqaradi. Javob beruvchi esa savollarga batafsil javob beradi. Keyin rollar almashinadi. Talabalar o'z intervyulari haqida qisqacha ma'lumot beradilar. O'qituvchi intervyu davomida aniqlangan xatolar yoki yutuqlarni muhokama qiladi.

2-jadval.

“Yo‘naltiruvchi intervyu”- kommunikativ mashqi

Le voyage a Paris	
allé(e) à Paris	l'année dernière
aimé le plus	la Tour Eiffel
la cuisine française	les croissants et les baguettes

1) Le voyage a Paris mavzusida yo‘naltiruvchi intervyu mashqi. Intervyu oluvchi quyidagi savollarni beradi va javob oladi:

- Vous êtes déjà allé(e) à Paris ? (Siz Parijga borganmisiz?)
- Oui, je suis allé(e) à Paris l'année dernière. (Ha, men o'tgan yili Parijga borganman.)
- Qu'avez-vous aimé le plus à Paris ? (Parijda sizga eng yoqqan joy qayer edi?)
- J'ai adoré la Tour Eiffel, c'était magnifique ! (Menga Eyfel minorasi juda yoqdi, u juda ham ajoyib edi!)
- Avez-vous goûté la cuisine française ? (Fransuz taomlarini tatib ko'rganmisiz?)
- Oui, j'ai goûté les croissants et une baguette. C'était délicieux ! (Ha, men kruassan va baget non tatib ko'rdim, mazali edi!)
- Quels monuments avez-vous visités ? (Qaysi yodgorliklarni ziyorat qildingiz?)
- J'ai visité Notre-Dame, la Tour Eiffel et l'Arc de Triomphe. (Men Notr-Dam sobori, Eyfel minorasi va Zafar arkini ziyorat qildim.)

Ushbu mashq turidan amaliy darslarda foydalanilganda talabalar muloqotda faol ishtirok etadilar, savol berish va javob berish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Guruh bilan ishlash jarayonida tilni amaliy foydalanishga imkon yaratiladi.

Muammoli o'qish (lecture de puzzle) mashq turi – bu til o'rgatishda keng qo'llaniladigan interaktiv mashq bo'lib, talabalarni kichik guruhlarda faol hamkorlikka jalb etadi. Ushbu mashq orqali talabalar ma'lumotni bir-biriga o'rgatishadi va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ushbu mashqda ma'lumotlarning bir qismi har bir guruhga beriladi. Talabalar ma'lumotlarini boshqalar bilan bo'lishib, butun matn yoki mavzuni to'liq tushunish uchun birgalikda ishlashadi. Bu mashq ko'proq muloqot, tinglash, o'qish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Talabalar kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga bir qism material beriladi. Har bir guruh o'z materialini o'qib chiqadi va uni tushunishga harakat qiladi. Keyin guruh ichida talabalar o'z qismlarini tushuntiradilar va muhokama qiladilar.

Mashqning afzalliklari: Talabalarni bir-biridan o'rganishga undaydi, bu esa ularning fikr almashish qobiliyatini oshiradi. Bu mashq har qanday mavzu yoki til darsida qo'llanilishi mumkin.

3-jadval.

Muammoli o'qish kommunikativ mashqi

Fransuz oshxonasi (Cuisine française)	En France, les croissants et les baguettes sont très populaires. Les plats traditionnels comme le ratatouille et le cassoulet sont servis dans beaucoup de restaurants. La France est également connue pour ses vins et ses fromages variés.
Fransuz festivallari va bayramlari (Fêtes et les festivals français)	Le 14 juillet, connu comme la Fête nationale, est célébré avec des feux d'artifice et des défilés. Le Festival de Cannes attire les plus grandes stars du cinéma chaque année en mai.

Fransuz san'ati va adabiyoti (Art et littérature française)	Claude Monet est un peintre célèbre pour ses œuvres impressionnistes, comme “Les Nymphéas”, Victor Hugo est un grand écrivain connu pour son roman “Les Misérables”
Fransiyadagi moda (La mode française)	La France est considérée comme la capitale de la mode. Les marques comme Chanel, Louis Vuitton et Dior sont célèbres dans le monde entier.

Optimistlar va pessimistlar (Optimistes and pessimistes) - talabalarni ijodiy fikrlashga undash va turli nuqtai nazarlarni muhokama qilishga jalb qilish uchun foydalaniladigan kommunikativ mashqdir. Mashq optimistik (ijobiy) va pessimist (salbiy) nuqtai nazarlarni ko'rsatishni talab qiladi, bu esa talabalarni turli vaziyatlarda fikr bildirishga va bahslashishga yordam beradi. Ushbu mashqda talabalar ikki guruhga, ya'ni optimistlar va pessimistlar guruhiga bo'linadi. Shundan so'ng muhokama uchun mavzu tanlanadi.

Jumladan, Sport mavzusi bo'yicha optimistlar Sport salomatlik uchun foydali ekanligini aytishsa, pessimistlar esa qiyin sport jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkinligini aytadilar. Muhokama jarayonida pessimistlar optimistlarning fikrlariga javoblarini bildiradilar va optimistlar pessimistlarni ularga qo'shimcha sifatida guruhlarda yozma javob yozadilar o'yin yakunida fikrlar umumlashtiriladi. Mashqning afzalliklari: Talabalar bir mavzuga turli jihatdan yondashishni o'rganadilar va fikr bildirishni mashq qiladilar. Bahs davomida muloqot ko'nikmalari mustahkamlanadi. Yangi iboralar va so'z birikmalarini ishlatish imkoniyati kengayadi.

Yakka, juft va guruh bo'lib o'ylash va baham ko'rish (Individuelle, groupe et partage) kommunikativ mashqi. Ushbu mashqda mavzu tanlanadi va birinchi gap o'qituvchi tomonidan tuziladi. O'qituvchi past ovozda musiqa qo'yadi, musiqa tugaguncha talabalar yakka tartibda fikrlarini yozma bayon etadilar. Talabalar fikrlarini yozib tugatgach, uni sheriklari bilan o'qib muhokama etadilar, shundan so'ng guruh 2 yoki 3 ga bo'linib fikrlar jamoada muhokama etiladi. Har bir talabaning yozgan fikridan parcha olinib hikoya yakunlanadi va guruh sardori tomonidan o'qib eshittiriladi. Bu mashq talabalarga jamoaviy fikrlash, muhokama qilish va turli masalalarda fikr almashish imkonini beradi:

Pour protéger l'environnement.....

Yakka, juft va guruh bo'lib o'ylash va baham ko'rish (Individuelle, groupe et partage) kommunikativ mashqi

A dan Z gacha (De A à Z) nomli kommunikativ mashqda talabalar mavzu bo'yicha kichik guruhlarda muhokama qiladilar va qisqacha ma'lumot yozadilar. So'ngra ularga tinglash uchun dialog eshittiriladi va alifbo tartibida guruh bo'lib dialog tuzadilar. Shundan so'ng uni rollarga kirib o'qib beradilar, o'yin oxirida talabalar tomonidan kamchiliklar va xatolar aytiladi, talabalar bir-birlarining ishlariga baho beradilar va mavzu umumlashtiriladi. A dan Z gacha bo'lgan harflar asosidagi kommunikativ mashqlar, talabalar uchun qiziqarli va samarali o'qitish usulini yaratadi. Ular tilni o'rganishda nafaqat so'z boyligini oshirishadi, balki analitik, kreativ va muloqotda faollik ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Rolli o'yinlar (Jeu de role) - kommunikativ mashqida talabalar berilgan mavzu bo'yicha o'rtoqlashib, kengashadilar va birgalikda ssenariy yozadilar. So'ngra uni o'qib chiqadilar va rollarga bo'linib ijro etadilar. Mashg'ulot yakunida o'ynagan rollaridan qoniqdingizmi yoki yo'qmi, yana rol o'ynasangiz qaysi xatoni qilmagan bo'lar edingiz, nima uchun kabi savollarga yozma javob yozadilar. Masalan, Sotuvchi: Siz bozorda turli xil

mahsulotlarni sotayotgan sotuvchisiz. Mahsulotlaringiz: sabzavotlar, mevalar, go'sht, pishloqlar va boshqalar.

Xaridor: Siz bozordan mahsulotlar sotib olayotgan xaridorsiz. Siz sotuvchi bilan muzokara qilasiz va mahsulotlar haqida savollar berasiz.

- Bonjour, bienvenue au marché ! Que puis-je vous offrir aujourd'hui ?
- Les pommes sont à 2 euros le kilo, les oranges à 3 euros
- Les tomates sont très fraîches aujourd'hui. Elles coûtent 2,50 euros le kilo
- Voulez-vous autre chose ?

Rolli o'yinning afzalliklari: Talabalar fransuz tilida real hayotdagi savdo-sotiq jarayonlarini o'rganadilar va muloqotda bo'lishadi. Bu mashq yordamida talabalar bozorda ishlatiladigan turli xil so'zlar va iboralarni o'rganadilar va nutqiy faoliyatda qo'llashni mashq qiladilar.

Muammoni top (Trouvez le problème) mashqida talabalarga mavzu bo'yicha muammoli vaziyat beriladi. So'ngra talabalar mavzuda o'rtaga tashlangan muammoga yechim topishga harakat qiladilar va daftarlariga qisqacha yozib ketadilar. Guruhlar bilan ishlaganlarida esa javoblarini solishtirib to'g'ri javob tanlanadi va guruh yordamida yechim topib yoziladi.

Bunday kommunikativ mashqlar talabalarga ma'lumot bilan almashish imkonini, muammoni yechish, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish, o'z fikrlarini bemalol hech qanday ikkilanmay izhor etish imkonini beradi, talabalarning o'zlariga bo'lgan ishonchini orttiradi. Shu bilan bir qatorda ularga ko'tarinki kayfiyat berib, til o'rganishga bo'lgan motivatsiyalarini kuchaytiradi.

XULOSA

Tadqiqotimiz davomida fransuz tili darslarida ta'limning dastlabki bosqichida talabalar uchun nutq faoliyatida ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan retseptiv, reproduktiv, produktiv mashqlardan foydalanishni, yuqori bosqich uchun esa mavzular bo'yicha nutq faoliyati turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan situativ-kommunikativ, ijodiy va integrativ mashqlar tizimini qo'llash samara berishini aniqladik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rasulov A.A., Xaydarov M.M. O'qitishning interfaol metodlari: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 7.
2. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
3. Saydaliev S. Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari: olmon tili misolida. – Namangan, 2019.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Moliya, 2003. – B. 33.
5. Usmanova D. Ingliz tiliga o'qitishda CEFR talablarini bajarishning o'ziga xos jihatlari // Chet tillarni o'qitishni CEFR asosida takomillashtirishning istiqbollari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to'plami. – Toshkent, 2015. – B. 39.
6. Xidoyatova D.A. Interfaol ta'lim. – Toshkent: Abu matbuot-kristal nashriyoti, 2016. – 68 b.
7. Hoshimov O'., Yoqubov I. va boshq. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2003. – 301 b.